

KARTALI TO'LOV TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI

Xushboqov U.
BFA-Tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarida kartali to'lov tizimining samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning innovatsion yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ishda birlamchi ma'lumotlar sifatida "Asaka bank" AJ va boshqa tijorat banklarining statistik hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BIS, OECD va boshqalar) hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy, statistik, iqtisodiy va SWOT-tahlil usullariga asoslanib, kartali to'lov tizimlarining rentabelligi, texnologik innovatsiyalar darajasi, mijozlar faolligi va xizmat sifati o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Natijada, banklarda kartali to'lov tizimlarining samaradorligini baholash uchun diagnostik ko'rsatkichlar tizimi hamda ekonometrik model ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kartali to'lov tizimi, raqamli transformatsiya, naqd pulsiz iqtisodiyot, bank infratuzilmasi, HUMO, UzCard, elektron to'lov, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Hozirgi global raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy xizmatlar

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliya-bank sohasidagi islohotlar jarayonida tijorat banklarining kredit siyosati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kredit — iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirish hamda aholi turmush darajasini oshirishning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi.

Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotda barqaror va yetakchi mavqeini ta’minlash, avvalo, ularning kredit siyosati samaradorligiga chambarchas bog‘liqdir. Kreditlash faoliyati tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega yo‘nalish hisoblanib, u asosiy daromad manbai sifatida namoyon bo‘ladi va bir vaqtning o‘zida yuqori tavakkalchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Bank moliyaviy natijalarining katta qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratilgan kreditlardan shakllanishi bu sohaning muhimligini yanada tasdiqlaydi. Shu bois, banklar faoliyatining barqarorligini ta’minlash, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning joriy xarajatlari hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish darajasi kredit siyosatining qanchalik oqilona ishlab chiqilgani va amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy iqtisodiy muhitda naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari ichida eng qulay, xavfsiz va samarali vositalardan biri — bu plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlardir. Plastik kartalar bugungi kunda nafaqat bank tizimining ajralmas qismi, balki aholining kundalik hayotida ham asosiy moliyaviy vositalardan biriga aylangan.

Jahon miqyosida kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida plastik kartalar orqali to‘lov tizimlari iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlariga kirib bormoqda. O‘zbekiston ham xalqaro moliyaviy tizim bilan

integratsiyalashuv yoʻlida ushbu instrumentlarning ahamiyatini oshirmoqda. Naqd pul aylanmasidan bosqichma-bosqich voz kechish va raqamli toʻlov tizimlariga oʻtish jarayonida plastik kartalarning oʻrni beqiyosdir.

Plastik karta — bu tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beruvchi, xavfsiz, ishonchli hamda zamonaviy toʻlov vositasidir. Uning asosiy afzalligi shundaki, karta egasi barcha moliyaviy operatsiyalarni oson, tez va aniq tarzda amalga oshirishi, mablagʻlarning harakatini real vaqt rejimida nazorat qilishi mumkin.

Plastik kartalar axborot texnologiyalariga asoslangan boʻlib, ular orqali karta egasining bank hisobvaragʻidagi mablagʻlar holati, amalga oshirilgan toʻlovlar va xaridlar haqidagi maʼlumotlar elektron shaklda saqlanadi. Bu esa nafaqat mijoz uchun qulaylik yaratadi, balki bank tizimi uchun ham pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy monitoringni amalga oshirish va iqtisodiyotda naqd pulsiz muhitni kengaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, plastik kartalar — naqd pulsiz hisob-kitoblarning eng ishonchli va zamonaviy shakli boʻlib, ularning keng joriy etilishi bank tizimining raqamli rivojlanishiga, moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini taʼminlashga va mamlakat iqtisodiyotida toʻlov intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Plastik kartalar bugungi darajaga yetib kelguniga qadar uzoq yillar davomida rivojlanish bosqichlarini bosib oʻtgan. Dastlab ular sodda, qogʻoz koʻrinishdagi hujjatlar shaklida qoʻllanilgan boʻlib, vaqt oʻtishi bilan ularning texnologik imkoniyatlari, dizayni va funksional xususiyatlari bosqichma-bosqich takomillashib borgan. Zamonaviy plastik kartalarning shakllanishi jarayonini toʻliq tushunish uchun ularning tarixiy ildizlarini tahlil qilish zarur.

Plastik kartalardan to'lov vositasi sifatida foydalanish g'oyasi XIX asr oxirlarida Angliyada paydo bo'lgan. Bu boradagi dastlabki ilmiy fikrlar amerikalik yozuvchi Jeyms Bellami tomonidan 1880 yilda chop etilgan *"Looking Backward"* ("Orqaga nazar") nomli asarida ilgari surilgan. Unda kredit asosida to'lovni amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus kartalar haqidagi konsepsiya bayon etilgan edi.

Amaliy jihatdan esa plastik kartalar birinchi marta Amerika Qo'shma Shtatlarida qo'llanila boshlandi. Dastlabki tijoriy plastik kartalar 1914-yilda General Petroleum Corporation of California (hozirgi *Mobil Oil Company*) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu kartalar yoqilg'i mahsulotlari savdosida qo'llanilgan bo'lib, ular xaridorlarga qulaylik, tezkor xizmat va chegirmali xarid imkoniyatlarini yaratgan. Bu yangilik tez orada ommalashib, mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini tubdan o'zgartirgan.

Plastik kartalarning qulayligi va xavfsizligi sababli ularning qo'llanish sohasi kengaygan. Banklar bu vositalarni nafaqat tovar va xizmatlar uchun to'lovlarda, balki mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishda ham qo'llay boshladi. Buning natijasida kartalar banklar uchun barqaror daromad manbaiga aylandi.

XX asrning o'rtalariga kelib, plastik kartalar xalqaro to'lov vositasi sifatida keng e'tirof etildi. Dastlab yirik moliya institutlari tomonidan chiqargan kartalar orasida Diners Club (1950-yil), American Express (1958-yil) va Hilton Credit Card (1959-yil) tizimlari mavjud bo'lib, ular kredit va to'lov funksiyalarini birlashtirgan ilk universal to'lov vositalari sifatida tan olingan. Aynan shu davrni naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy bosqichi boshlangan davr sifatida baholash mumkin.

1960–1970-yillar oralig'ida plastik kartalar dasturlari yanada rivojlanib,

ko‘plab banklar o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatishda yangi texnologik yechimlarni joriy qila boshladi. Biroq, dastlabki bosqichda asosiy muammo banklar o‘rtasida yagona xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining yo‘qligi bo‘ldi. Shu sababli 1966-yilda Bank of America boshqa banklarga “*BankAmericard*” kartalarini chiqarish uchun litsenziya bera boshladi.

Mazkur tashabbusga javoban bir nechta yirik banklar o‘zaro hamkorlikda Interbank Card Association (ICA) — hozirgi MasterCard xalqaro to‘lov tizimining asosini tashkil etuvchi assotsiatsiyani tuzdilar. Bu jarayon plastik kartalar bozorini globalashtirdi va xalqaro to‘lov tizimlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Shu tariqa, plastik kartalarning rivojlanish tarixi nafaqat moliyaviy texnologiyalar evolyutsiyasining ajralmas qismi, balki butun dunyoda naqd pulsiz to‘lov madaniyatining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Plastik kartalar evolyutsiyasining navbatdagi muhim bosqichi fransuz ixtirochisi Rolan Moreno nomi bilan bog‘liq. U 1974-yilda kartalarga elektron mikrosxemani joylashtirish g‘oyasini ilgari surgan va bu orqali “aqli karta” — smart-card texnologiyasining asosi yaratilgan. Mazkur yondashuv natijasida plastik kartalar endilikda faqat identifikatsiya vositasi bo‘lib qolmay, balki axborot saqlovchi va qayta ishlovchi mini-kompyuter sifatida ham ishlay boshladi.

Evropada “smart-card” texnologiyasi juda tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Shu jarayonda O‘zbekiston hukumati ham jahon tajribasiga asoslanib, milliy to‘lov tizimini modernizatsiya qilish va plastik kartalardan foydalanishni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratdi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘lov tizimi infratuzilmasi jadal rivojlanib, bank-emitentlar soni, shuningdek, plastik kartalardan foydalanuvchi mijozlar ulushi yil sayin oshib bormoqda.

Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan smart-kartalar imkoniyatlari 1980-yillarda yaratilgan shaxsiy kompyuterlarning dastlabki texnik quvvatlariga teng darajada bo‘lib, ular to‘lov operatsiyalarining xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlaydi. Smart-karta zamonaviy sharoitda mukammal to‘lov vositasi sifatida “elektron hamyon” funksiyasini bajaradi.

Elektron hamyon — bu jismoniy shaxs nomiga rasmiylashtirilgan elektron karta bo‘lib, u orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish, naqd pul yechib olish yoki bir nechta valyutada to‘lovlar o‘tkazish imkonini beradi. Zamonaviy smart-kartalar bir nechta valyutada alohida “elektron hamyon” bo‘linmalariga ega bo‘lishi mumkinligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, plastik kartalar texnologiyasi dunyo bo‘yicha keng tarqalib, global to‘lov tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan.

O‘zbekistonda esa plastik kartalar tizimi nisbatan kechroq — 1990-yillarning boshlarida shakllana boshlagan. Plastik kartalar milliy iqtisodiyotga kirib kelishida Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy banki (TIF Milliy bank) muhim rol o‘ynagan.

1993-yilda TIF Milliy bank VISA International to‘lov assotsiatsiyasiga to‘laonli a‘zo sifatida qabul qilinib, dastlab 5 mingga yaqin VISA Classic turidagi shaxsiy va korporativ debet kartalarini muomalaga chiqargan. Keyingi yillarda Andijonbank 1995-yilda Rossiyaning Union Card to‘lov tizimi kartalarini emissiya qilgan.

Shundan so‘ng O‘zDEUbank ham xalqaro to‘lov kartalarini muomalaga chiqara boshladi. ABN-AMRO Bank va Asaka bank esa MasterCard International

tizimiga a'zo bo'lib, shu turdagi xalqaro kartalarni joriy etdi. 1996-yildan boshlab TIF Milliy bank kredit va debet kartalarini ishlab chiqishni keng yo'lga qo'ydi, 1999-yildan esa Asaka bank o'z mijozlariga ushbu xizmat turini taklif qila boshladi.


2002-yildan boshlab respublika bo'ylab 70 dan ortiq ish haqi loyihalari amaliyotga joriy etildi va bu tizim bugungi kunda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida plastik kartalar rivoji bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning samarasi sifatida milliy to'lov tizimlari — HUMO va UzCard brendlari shakllandi.

Hozirda O'zbekistonning barcha tijorat banklari xalqaro va milliy to'lov tizimlariga integratsiyalashgan bo'lib, kartalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Plastik kartalar milliy iqtisodiyotda naqd pulsiz to'lovlarning ulushini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish va bank xizmatlarining ommabopligini kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida hisob-kitob infratuzilmalari bosqichma-bosqich raqamlashtirilib, moliyaviy xizmatlar sohasida elektron to'lov tizimlarining ulushi ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat aholining to'lov madaniyatini oshirmoqda, balki bank tizimida naqd pulsiz muomalalarning o'sishini ham ta'minlamoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida shakllangan to'lov infratuzilmasi, mobil banking, onlayn to'lov platformalari va bank kartalari orqali operatsiyalar hajmining kengayishi natijasida, iqtisodiyotda pul aylanish tezligi ortib, naqd pulga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamaymoqda. Shu bilan birga, bank kartalari

orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning hajmi yil sayin barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.



1-rasm. Bank kartalaridan naqlashtirish hajmlari dinamikasi

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


Markaziy bank statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda bank kartalariga tushgan mablag'lar hajmi 2023-yilga nisbatan 244,7 trillion so'mga yoki 31 foizga oshgan. Bu o'sish, bir tomondan, raqamli to'lov infratuzilmalarining takomillashuvi, ikkinchi tomondan esa aholining elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, HUMO, UZCARD va Visa tizimlari o'rtasidagi integratsiya, shuningdek, mobil to'lov ilovalari (Click, Payme, Apelsin, Oson, Zoomrad va boshqalar) orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmining ortishi bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda.

Shunga qaramay, bank kartalaridagi mablag'larni naqdlashtirish operatsiyalari ham o'sish tendensiyasini saqlab qolmoqda. 2024-yilda kartalardan naqdlashtirilgan mablag'lar hajmi 225,9 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 19,4 foizga ko'paygan. Biroq, ushbu o'sishning nisbiy ulushi kamaygan:

agar 2023-yilda kartaga tushgan mablagʻlarning 24,0 foizi naqdlashtirilgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 21,8 foizgacha pasaygan.

Ushbu tendensiya shuni koʻrsatadiki, aholining moliyaviy xulq-atvori bosqichma-bosqich oʻzgarib bormoqda: ular naqd puldan foydalanish oʻrniga elektron toʻlovlarni afzal koʻrmoqda. Bu esa toʻlov tizimlarining samaradorligi, xavfsizligi va tezkorligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, chakana savdo, kommunal xizmatlar, transport, sogʻliqni saqlash va taʼlim tizimlarida toʻlovlarning raqamli shaklga oʻtishi naqd pulsiz iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli turtki bermoqda.

Bugungi kunda aholining kundalik moliyaviy faoliyatida mobil banking, internet toʻlov tizimlari hamda raqamli toʻlov platformalari (Click, Payme, Apelsin, Oson, Zoomrad, HUMO Pay, Uzum Bank ilovalari va boshqalar) orqali amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat iqtisodiyotdagi naqd pul aylanmasining qisqarishi, pul oqimining bank tizimi orqali markazlashuvi va moliyaviy nazoratning kuchayishiga olib kelmoqda.



2-rasm. Bank kartalaridan chiqim qilingan mablagʻlar manbalari

bo'yicha ulushi

Manba: O'z. Res. Markaziy bankining 2024 yil uchun statistik byulteni.


Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 1 030 trillion so'mni tashkil etgan. Ushbu tranzaksiyalarning 78,1 foizi naqd pulsiz shakldagi operatsiyalar hissasiga to'g'ri kelgan. Solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkich yildan-yilga izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda: 2022-yilda naqd pulsiz operatsiyalar ulushi 72,8 foiz, 2023-yilda esa 75,9 foiz bo'lgan.

Bunday dinamik o'sish O'zbekiston moliyaviy tizimida raqamli to'lov texnologiyalarining faol joriy etilayotganini tasdiqlaydi. Xususan, HUMO va UZCARD milliy to'lov tizimlari o'rtasida integratsiyaning chuqurlashuvi, QR-kodli to'lovlar, biometrik autentifikatsiya, mobil POS-terminallar kabi innovatsion yechimlar aholining raqamli to'lov vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Pul muomalasining tarkibidagi bunday o'zgarishlar iqtisodiy jarayonlarga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, naqd pulsiz to'lovlarning ko'payishi bank tizimining likvidlik darajasini oshiradi, soya iqtisodiyoti hajmini kamaytiradi, shuningdek, soliq tushumlarining oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli to'lovlar hisobiga tovar va xizmatlar bozorida tezkorlik, qulaylik va xavfsizlik darajasi ortmoqda.

Shuningdek, bu o'zgarishlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Naqd pulsiz to'lovlarning afzalliklari — shaffoflik, tranzaksiya tarixining saqlanishi, firibgarlik xavfini kamaytirish va xizmatlar uchun real vaqt rejimida hisob-kitob imkoniyatlari — keng qatlam tomonidan

anglab etilmoqda.



**3-rasm. Bank kartalariga kelib tushgan mablag‘lar manbalari
bo‘yicha ulushi**

Manba: O‘z. Res. Markaziy bankining 2024 yil uchun statistik byulteni

Hisobot yilidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank kartalariga tushayotgan mablag‘larning tarkibi tobora diversifikatsiyalanib, iqtisodiyotda naqd pulsiz to‘lovlarning ijtimoiy va iqtisodiy funksiyasi kuchaymoqda. Aholi daromadlarining turli manbalari bo‘yicha to‘lovlar hajmining bank kartalari orqali amalga oshirilishi, moliyaviy tizimning shaffofligini oshiribgina qolmay, pul muomalasini bank sektorida markazlashtirishga xizmat qilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hisobot yilida bank kartalariga tushgan jami mablag‘larning 26,7 foizi pensiya, nafaqa, stipendiya va ish haqi to‘lovlariga to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich, bir tomondan, davlatning ijtimoiy siyosatini moliyaviy tizim orqali samarali amalga oshirilayotganidan, ikkinchi tomondan esa, aholining kundalik to‘lov operatsiyalarida raqamli moliya vositalaridan faol foydalanayotganidan dalolat beradi.

Pensiya va ijtimoiy to'lovlarning bank kartalari orqali amalga oshirilishi nafaqat qulaylik, balki mablag'larning manzilli va o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash, naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hamda soya iqtisodiyotining qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, davlat byudjeti mablag'larining elektron shaklda aylanishi natijasida, naqd pul aylanmasi kamayib, Markaziy bank uchun pul-kredit siyosatini yuritishda aniqroq ma'lumotlar bazasi shakllanmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish masalasi bank resurslaridan samarali foydalanish, kredit portfelining sifatini oshirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy izlanish jarayonida aniqlandiki, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi kredit jarayonlarida shaffoflik va xavflarni oldindan baholash imkoniyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, me'yoriy hujjatlar hamda xalqaro tajribalar taqqoslangan holda tahlil qilinganda, O'zbekiston bank tizimida kredit siyosatini takomillashtirish uchun diversifikatsiya, risklarni kamaytirish, mijozlarni baholashda zamonaviy scoring modellaridan foydalanish va ichki auditni kuchaytirish muhim omillar sifatida qayd etildi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish masalasi moliyaviy barqarorlik va kredit portfeli sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi.

Avvalo, 2020–2024 yillarda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Bu holat banklarning iqtisodiyotdagi moliyalashtirish vazifasi kengayib borayotganini anglatadi va kredit siyosatini

samarali yoʻnaltirishga boʻlgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, muammoli kreditlar koʻrsatkichi tahlil etilganda, ularning ulushi barqaror darajada qolsa-da, yillar kesimida ortib borish tendensiyasi kuzatildi. Bu esa banklar kredit siyosatini yanada puxta yoʻnaltirishi va risklarni oldindan baholash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Shu bilan birga, mijozlarni baholash jarayonida raqamli skoring modellari va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan banklarda muammoli kreditlar ulushi anʼanaviy usullarga qaraganda sezilarli darajada past ekani qayd etildi. Bu esa raqamli yondashuvlarning kredit siyosatini takomillashtirishdagi samaradorligini namoyon qiladi.

Xalqaro meʼyorlar taqqoslanganida esa kredit risklarini chegaralash, portfelni diversifikatsiya qilish va bank likvidligini taʼminlash masalalarida xalqaro standartlardan toʻliq foydalanish zarurligi aniqlandi.

Natijalar shuni koʻrsatdiki, kredit siyosatini takomillashtirish jarayonida ichki audit xizmatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Audit tizimi samarali yoʻlga qoʻyilgan banklarda kreditlar qaytarilishi yuqori va muammoli kreditlar koʻrsatkichi past darajada boʻladi.

Tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirish orqali kredit portfelining sifatini oshirish, risklarni kamaytirish, raqamli texnologiyalar orqali mijozlarni baholashni samarali tashkil etish hamda ichki nazorat tizimini kuchaytirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa banklar moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2018, 9 yanvar). “Markaziy bank faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–5296.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2017, 12 sentyabr). “Bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–3270.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2010, 6 aprel). “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsiyaviy faollikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–1317.
4. Kostina, M.V. (2020). Kredit siyosatini risk-menejment vositasi sifatida qo‘llash. Moskva.
5. Ivanova, N.A. (2018). Zamonaviy shartlarda kredit siyosatining strategik ahamiyati. Moskva.
6. Pechenkina, O.S. (2019). Kommersiya banklarida kreditlashning nazariy-amaliy jihatlar. Moskva.
7. Kuznesova, V.V. (2021). Bank kredit siyosati va uning samaradorligi. Sankt-Peterburg.
8. Larina, O.I. (2020). Kredit portfelini boshqarishda innovatsion yondashuvlar. Moskva.
9. Zelenyova, Ye.S. (2019). Tijorat banklari kredit siyosatining iqtisodiy jihatlar. Moskva.
10. Kovalerova, L.A. (2020). Kommersiya banklari kredit portfeli boshqaruvi. Moskva.



11. Pshenichnikova, S.V. (2020). Kredit siyosatida risk va diversifikatsiya. Moskva.